



Komila SAYDJANOVA,
Alfraganus Universiteti o'qituvchisi

Toshkent menejment va iqtisodiyoti instituti dotsenti, PhD, Sh.Gulyamova taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA SINONIMLARNI ANIQLASH VA TASNIFFLASHNING ASOSIY MEZONI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sinonimiyaga oid asosiy qarashlar va tadqiqot usullari ko'rib chiqilgan. Sinonimlar til tizimining asosiy unsurlaridan biri sifatida tahlil qilinib, sinonim aloqalarni aniqlash uchun asosiy mezonlar taqdirm etilgan: leksik ma'nuning umumiyligi, nominatsiyaning umumiyligi, bir-birini almashtira olishlik va tushunchaviy umumiyligi. Shuningdek, maqolada sinonimlarning bir qator muhim jihatlari, jumladan, ma'nolar o'xshashligi va farqlanishi, semantik moslik va leksik qo'llanishning nozik tafovutlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Sinonimiya, leksik ma'no, nominatsiya, ma'no o'xshashligi, semantik moslik, sinonimik qator, bir-birini almashtira olishlik.

ОСНОВНЫЕ КРИТЕРИИ ВЫЯВЛЕНИЯ И КЛАССИФИКАЦИИ СИНОНИМОВ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены основные взгляды и методы исследования синонимии. Проанализированы синонимы как один из основных элементов языковой системы и представлены основные критерии определения синонимических отношений: общность лексического значения, общность наименования, взаимозаменяемость и концептуальная общность. В статье также обсуждается ряд важных аспектов синонимов, включая сходство и различие значений, semanticскую совместимость и тонкие различия в лексическом использовании.

Ключевые слова: Синонимия, лексическое значение, наименование, сходство значения, смысловая совместимость, синонимический ряд, взаимозаменяемость.

BASIC CRITERIA OF EXPRESSION AND CLASSIFICATION OF SYNONYMS IN LINGUISTICS

Annotation

The article defines the main views and methods of studying synonyms. Synonyms are analyzed as one of the main elements of the linguistic system and the main criteria for defining synonymous relationships are presented: the generality of lexical meaning, the generality of the noun, the influence of language on conceptual generality. In this paper, a number of important aspects of synonyms are discussed, including their coherence and differences in meaning, semantic compatibility, and subtle differences in lexical use.

Key words: Synonymy, lexical meaning, naming, similarity, meaning, synonymy, meaning.

Kirish. Ma'lumki, so'zlarning sinonimik aloqalari leksikaning tizimli xarakterini eng yorqin aks ettrib, uning izchil va har tomonlama tavfsi hozirgi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan birini tashkil qildi. Sinonimiya muammosining dolzarbli eng avvalo bu kategoriyaning yetarli darajada o'rganilmaganligi, umumiy sinonimik kontseptsianing yo'qligi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Lingvistlar bir yoqadan bosh chiqarib bir-biriga qo'shilishadigan narsa – bu sinonimlarning til tizimidagi muhim rolini tan olishdir [1]. Vaholanki, muammoning eng ahamiyatlari jihatlaridan sinonimi, sinonimiklikni, tasnifning printsiplarini, sinonimik qatorning tuzilishini, ma'nuning nozik farqi¹ tushunchasini aniqlash kabi masalalar va boshqalar o'zining yechimini kutib turibdi.

Ko'rsatilgan problematikaning to'la tanqidiy tahlilini berishni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ymay, sinonimlarni ajratib ko'rsatishning asosiy prinsiplarini qisqacha ta'riflab berishga va shu tarzda harorat idroki sifatlarining leksik semantik guruhlardagi sinonimik aloqalarini tadqiq qilishning dastlabki pozitsiyalarini aniqlashga harakat qilamiz.

Shu munosabat bilan sinonimiyaning tabiatiga bo'lgan mavjud qarashlarning xilma-xilligi quyidagi mezonlarga olib kelish mumkin.

1. So'z leksik ma'nosining umumiyligi mezoni.
2. Nominatsiyaning umumiyligi mezoni.
3. Bir-birini almashtira olish mezoni.
4. Tushunchaviy umumiylilik mezoni.

So'z leksik ma'nosining umumiyligi asosida sinonimiyanı aniqlashga intilish mantiqiy va lingvistik kategoriyalarni chegaralash tendensiyasi bilan bog'liq.

Asosiy mezonnini tanlashdagi birdamlikkha qaramay, uning tarafdarlari o'rtasida leksemalarni sinonimik qatorlarga konkret

birlashtirishda har xil yondashuv kuzatiladi. Sinonimik munosabatlarni sharflashning ikkita usuli aniq yaqqol ko'rindadi:

1.Ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligi asosida.

2.Ma'nolarning bir xilligi asosida.

Ularning birinchisi qadimgi yunon va rim falsafiy ta'limotlariga borib taqaladigan sinonimlarni an'anaviy tushunishni aks ettiradi [2]. Bu mezoning shartliligi shunchalik shubhasizki, hatto uni o'zlarining darsliklarda sinonimlarning ta'riflarida foydalanadigan mualliflar ham "noto'g'rili" va "noaniqligi" haqida pisanda qilishga majburdirlar [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ammo hozirgi fransuz lingvistlari: Benak, Bayi, Bar, De Noter, Grevis va boshqalar sinonimlarning o'z sharhida ma'nolarning yaqinligi yoki aynan o'xshashligidan kelib chiqadilar.

Ma'nolarning umumiyligiga asoslanib, S.Ullman o'z ta'rifini shakllantiradi[4]. Buning ustiga "ma'no" (sens) unda so'zning ham tushunchaviy, ham affektiv ma'nosini qamrab oladi [5].

Sinonimlarning semantik umumiyligini A.Mitteran, uni qo'llanilishning o'ziga xos xususiyatlari bilan to'ldirib, yanada kengroq tushunadi[6]. Masalaning bunday qo'yilishida, N.N. Lopatnikovaning to'g'ri qayd qilishicha, to'g'risini aytganda tilda sinonimlarning mayjudligi fakti yo'qqa chiqariladi[7].

Sinonimiklikning sof lingvistik kategoriyasini – ma'noni eng maqbul mezon deb hisoblab, nomlari keltirilgan lingvistlar qo'llanilayotgan atamalarining va eng avval, aynan ma'nuning ishlab chiqilmaganligini hisobga olmaydilar. Shu sababli, V.A. Zvegitsev, sinonimlarning ta'rifini leksik ma'no tushunchasining bazasida, bu leksik ma'no aniqlanmagan paytda qurish foydasizdir deganida, shak-shubhasiz haqdir[8].

“Yaqinlik”, “o’xshashlik” atamalarining noaniqligini, mujmalligini odilona payqab qolib, ba’zi bir tadqiqotchilar sinonimik munosabatlarni leksik birliliklarning qat’iy aynan bir xilligi doiralarli bilan cheklaydilar.

Misol uchun, S.G. Berejanning hisoblashicha, “intuitiv tarzda idrok qilingan so’zlarning ma’noviy yaqinligi sinonimiklikning ishonchli mezoni sifatida chiqishi mumkin emas. Maxsus adabiyotda ilgari surilayotgan sinonim so’zlarni aniqlashning boshqa mezonlari: tushunchaning birligi, nominatsiyaning umumiyligi va bir-birini o’zaro almashtira olish ham to’g’ri kelmaydigan hisoblanadilar[9].

So’zlarni leksik-semantik variantlarning (semantik ko’paytiruvchilarning, semalarning) to’plami holida tahlil qilib, S.G. Berejan shu haqida xulosaga keladiki, “Sinonimiya deganda ... ma’nolari eng mayda semantik birliliklarni namoyon qilmaydigan bir qator so’zlarning ma’noviy mos kelishini emas, chunonchi ular ma’nolarining alohida struktur elementlarining to’la mos kelishini tushunish kerak”[10].

Masalaning bunday qo’yilishida sinonimiya hodisasingin mohiyati qashshoqlashadi, u umumiyyining va xususiyining, o’xshashning va farqlining dialektik birligini taqozo qiladi.

Yuqorida zikr qilingan yondashuvning subyektiv xarakteri va kam mahsulorligi bir qator tadqiqotchilarda keskin tanqidni keltirib chiqaradi. Misol uchun, L.A. Cheshkoning fikriga ko’ra, “agar qarab chiqilayotgan nuqtai nazarda turilsa, shubhasiz, unda sinonimik lug’atning tarkibini leksik dubletlar deb ataluvchilarning va ularga yaqin leksik birliliklarning juda oz sonli qatlami bilan, bir necha asosiyo so’zga (dominantaga) – o’zining stilistik qo’llanilishi yoki ishlatalish sohasi bo’yicha keskin cheklangan so’zlar bilan chegaralash mumkin bo’lar edi”[11].

Ikkinchisi mezonning (nominatsiyaning umumiyligi) asosida sinonimlarni referensjon talqin, ya’ni referentning yoki voqelik hodisasingin umumiyligi belgisi bo’yicha ajratish yotadi.

So’zlarning sinonimikligini aniqlashning bu usuli yangiligi bilan ajralib turmaydi. Bunday mulohazalar frantsuz lingvisti F.Bryunoda uchraydi. Uning “Tafakkur va til” ishidagi sinonimiya bo’yicha bo’limi “Bitta narsaning har xil nomlari” degan ikki xil tushunishga yo’l qo’ymaydigan sarlavhaga ega”[12].

Sovet tilshunosligida bu orientatsiya F.K. Gujva , M.F. Palevskaya , A.A. Reformatskiy , N.M. Shanskiy va boshqa ayrim lingvistlar tomonidan taqdirm qilingan.

Ekstraliningistik omil asosida sinonimiyaning tabiatini talqin qilish haddan tashqari kengaytirilgan tuyiladi, chunki u lingvistikani tilning eng xarakterli va ajralmas xususiyatlarning chegaralaridan tashqariga chiqarib tashlaydi. Bunday yondashuvda “tilning barcha vositalari, bu vosital yordamida “tafakkurda aks etgan voqeqliking xuddi o’sha parchasi” ifodalanishi mumkin bo’lsa, sinonimik xarakterni qo’iga kiritadi”[13].

Tahvil va natijalar. Boshqacha so’zlar bilan aytganda, bunday turdag'i ta’rif aslini olganda sinonimiyanı sintagmatik tartibga olib keladi, holbuki u nutqiy emas, balki umumtil xarakteriga ega. Demak, nominatsiyaning umumiyligi mezoni sinonim so’zlarni aniqlashda ishonchli vosita bo’lib xizmat qila olmaydi.

Uchinchi mezonning xarakteristikasiga o’tar ekanmiz, bir-birini almashtira olish sinonimiklikning ko’rsatkichi sifatida ushbu muammoga bag’ishlangan ishlarning deyarli barchasida tilga olinadi. Biroq uning samaradorligi darajasi lingvistlar tomonidan turlicha baholanadi.

Ayrim mualliflar unda sinonimlarni aniqlashning yagona ishonchli usulini ko’radilar. Bu xususida S.Ullman eng uzil-kesil shaklda o’z fikrini bayon qiladi: “Ne seront tenus pour synonymes authentiques que les mots qui peuvent se substituer les uns aux autres dans nimporte quel contexte, sans qu'il y ait le moindre changement dans la signification objective et la nuance affective de l'énoncé”[14].

Bu tezisni postulat sifatida aytib, muallif shunday xulosaga keladiki, bitta so’zni hamma jihatdan teng qimmatli boshqasi bilan almashtirish amalda mumkin emas.

Sinonimlarning bir-birini almashtira olish mezonini sovet tilshunoslari A.A. Bulaxovskiy, B.V. Gornung, O.L. Kamenskaya,

V.K. Favorin va boshqalar ishlata dilar. Buning ustiga, agar B.V. Gornung sinonimikligini aniqlash protsedurasining hal qiluvchi payti faqat kontekst deb hisoblasa, L.A. Bulaxovskiy ,O.L. Kamenskaya va boshqa bir qator tadqiqotchilar taqqoslanayotgan so’zlarning semantik yaqinligini ham isobga oladilar.

Sinonimlarni ajratib ko’rsatishda bir-birini almashtira olishning muhimligini A.N. Gvozdev va N.M.Shanskiy ta’kidlaydilar.

Sinonimiya bo’yicha ayrim ishlarda qisman semantik almashtira olishlikka yo’llanmalar mavjud. Misol uchun, S.G. Berejan, sinonimik munosabatlarga kirishuvchi so’zlarning ma’noviy teng qimmatli emasliklarini (masalan, bir ma’noli so’zning ko’p ma’noli so’zning ma’nolaridan biri bilan sinonimikligini) isobga olib, semantik jihatdan faqat qisman yoki bir tomonlama bir-birini almashtira olish haqidagina so’z yuritish mumkin, degan xulosaga keladi (bunga emotsiyal-baholash va distributiv tartibdagi cheklashlar qo’shiladi).

Tilshunoslarning boshqa qismining fikriga ko’ra, sinonimlarning bir-birini almashtira olishlari “xususiy, ammo ularning ixtiyoriy xususiyatlari hisoblanadi”, ularni ajratib ko’rsatish protsedurasida qo’shimcha usullardan birdir.

Sinonimikligini aniqlashga funksional yondashuvning tarafdarlarini tanqid qilib, A.P. Yevgeneva til bosqichini hamda nutq bosqichini, asl sinonimlarning va nutqda yuzaga keladigan son-sanoqsiz aynanlik va ma’nolarning yaqinligini chegaralashning zaruratini to’g’ri ko’rsatib o’tadi, bunda ma’noning aynan bir xilligi kontekst, nutq vaziyati, so’zlarning leksik-frazeologik aloqalari kabi va b. qo’shimcha shartlar bilan oldindan belgilab qo’yiladi.

Bu nuqtai nazarga N.N. Lopatnikova ham qo’shilishadi. Sinonimlarni aniqlashda bir-birini almashtira olishlik printspisi qo’llanilishining bir qator hollarda foydaliligin tan olib, muallif uni absolyutlashtirishdan ogohlantiradi, chunki so’zlarning haqiqiy ishlashi faqat ularning ma’noviy mazmuniga (sens) emas, balki ma’noning qo’shimcha belgilariga (signalement) bog’liqdir.

Bir qator boshqa sovet tadqiqotchilari ko’rsatilgan mezonni qo’llashning istiqbollariga nisbatan vazmin pozitsiyani band qiladilar.

Shu sababdan frantsuz lingvistlarining qarashlari ham bir-biriga to’g’ri kelmaydigandir. “Mutatis”, “mutandis” bu yerda sinonimiya bo’yicha vatan ishlarida mulohazalar “gammasi” kuzatiladi – sinonimlikning asosiy mezoni sifatida bir-birini almashtira olishni tan olishdan boshlab to uni mutlaqo inkor qilishgacha.

Birinchi yo’nalish tarafdarlariga “Hozirgi fransuz tili lug’ati”ning mualliflaridan biri R. Lagan kiradi. Tahsil qilinayotgan hodisaning kontekstga to’liq tobe’ligini qayd qilib, u sinonimlarni ta’riflaydi: “Deux ou plusieurs noms sont synonymes quand ils peuvent se substituer les uns aux autres dans les mêmes contextes (les mêmes “Environnements”), c.-à-d. entrer dans les mêmes phrases, sans que le sens en soit changé de façon appréciable.

La synonymie donc varie avec le contexte: 2 noms peuvent être synonymes dans une phrase donnée, alors que dans d’autres contextes ils ne sont pas substituables les uns aux autres”[15].

Fikrimizcha, eslatilgan principni sinonimik munosabatlarning tadqiqotidan butunlay chiqarib yuborish maqsadga muvofiq emas, chunki bir-birini almashtirish imkoniyati farqlarni, ammo birinchi navbatda, sinonim so’zlarning o’xshashligini nazarda tutadigan sinonimiya hodisasingin o’z dialektik mohiyati bilan bog’liqdir. Ko’rsatilgan prinsipning sinonimikligi tekshirishning usullaridan biri sifatidagi istiqboli O.Sovajoning qiziqarli eksperimental ma’lumatlari bilan tasdiqlanadi.

Maqsadi ma’lum sinonim so’zlarni farqlash yoki farqlamaslikni aniqlashdan iborat bo’lgan tilshunos bo’lmagan informantlarning so’rovi quyidagi natijani berdi: ishtirokchilarning ko’pchiligi sinonimik juftlikning bitta bo’lagini boshqasi bilan osongina almashtirib, taklif qilingan sinonimlar o’rtasidagi farqni ko’rsata olmadи.

Bir-birini almashtira olishlik leksemalar sinonimikligining ko’rsatkichi sifatida odatda uning neutralizatsiya tushunchasiga bog’liqmasligi bilan xarakterlanadi.

Haqiqatda, semantik, aniqrog'i, sinonimlarni qatorda qarama-qarshi qo'yishdagi tushunchaviy farqlarni neyrallash ularning almashtirish imkoniyatini oldindan belgilab beradi, demak, sinonimik leksemalarni o'zaro almashtirish protsedurasida bosh asos hisoblanadi.

Xulosa. Sinonimiyanı tahlil qilishda turli mezonlar asosida turliça yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, sinonimlarning

til tizimida muhim o'rni borligi shubhasiz. Sinonimik munosabatlar leksik birliklar o'tasidagi ma'no yaqinligiga asoslanadi. Biroq sinonimlarning to'liq bir-birini almashtira olish xususiyati amalda har doim ham to'g'ri kelmaydi. Shu sababli, sinonimiyanı tadqiq qilishda har xil mezonlarning bir-birini to'ldiruvchi rolini hisobga olish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Dubois J.e.a. Dictionnaire de linguistique. P., Larousse, 1973, p.477. J.Lyons. Linguistique Générale. P., Larousse, 1970, p.345.
2. Macalán, карапнг: Б.Н. Головин. Введение в языкознание. М.,1973, с.99; А.В. Калинин. Лексика русского языка. М.,1971, с.47; В.Н. Цыганова. Синонимический ряд (на материале глаголов современного русского языка). В сб.: "Очерки по синонимике современного русского литературного языка". Под ред. А.П. Евгеньевой. М.-Л.,1966, с.169.
3. Реформатский А.А.. Введение в языкознание. Москва,1967, с.62.
4. On aura donc des synonymes quand deux ou plusieurs mots différents ont le même sens." S.Ullmann. Précis de sémantique française. P.,1959, p.180.
5. Ibid., p.148.
6. Mitterand H.. Les mots français. P.,1965, p.74-75.
7. Lopatinikova N.N., Movchovitch N.A.. Lexicologie du français moderne. М. ,1971, p.182.
8. Звегинцев В.А.. Кўрсатилган асар, 130-131-бетлар. Шу муносабат билан С.Х. Иоффенинг мулоҳазасини қиёсланг: "Лексик синонимия муаммоси факат маъноларнинг таърифи назарияси яратилгандан кейингина ҳал қилиниши мумкин". Грамматическое значение и лексические синонимы. В сб.: "Лексическая синонимия", М., 1967, с.7.
9. Бережан С.Г.. Теория семантических полей и синонимия. В кн.: "Проблемы языкознания. Доклады и сообщения советских ученых на X Международном конгрессе лингвистов". М.,1967, с.167.
10. Бережан С.Г.. Теория семантических полей и синонимия. В кн.: "Проблемы языкознания. Доклады и сообщения советских ученых на X Международном конгрессе лингвистов". М.,1967, с.168.
11. Чешко Л.А.. Предисловие к "Словарю синонимов русского языка" З.Е. Александровой. М., 1968, с.5. Бу ҳакида Евгеньеванинг А.П. мулоҳазасини карапнг. Проект словаря синонимов. Введение. М., 1964, с.8.
12. Brunot F.. "La pensée et la langue". P.,1922, pp.79-80.
13. Евгеньева А.П.. Основные вопросы лексической синонимии. В сб.: "Очерки по синонимике современного русского литературного языка". Под ред. А.П. Евгеньевой. М.-Л., 1966, с.11.
14. Ullmann S.. Précis de sémantiques française. Berne, 1952, p.180.
15. Livret méthodologique établi sous la direction de R.Lagane. Dictionnaire du français contemporain. P. Larousse, 1971, p.13-14
16. BOBOJONOVA, S. (2024). LINGUOCULTUROLOGY AND CONCEPT. UzMU xabarlari, 1(1.4), 296-300.
17. Kizi, B. S. Y. (2023). DISCOURSE AND ITS INTERPRETATION IN MODERN LINGUISTICS. International Journal of Pedagogics, 3(11), 146-148.
18. Davranovna, S. K. (2022). XORIJY TILDA LEKSIKO SINONIMIK MEZONLAR. Journal of new century innovations, 18(2), 112-118.
19. Сайджанова, К. Д. (2020). Сравнительный лексикологический анализ французских средств в современном медицинском языке. Вестник науки и образования, (14-3 (92)), 25-27.